



## MAKTABGACHA YOSHDAGI 6-7 YOSHDAGI BOLALARNI EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

---

*Rasulxo'jayeva Madina Axmadjonovna*

*Nizomiy nomidagi Maktabgacha ta'lim metodikasi*

*kafedrası dotsent., (PhD)*

*madinarasulxojayeva7@gmail.com*

*Faxriddinova Marjona Anvar qizi*

*Maktabgacha ta'lim yonalishi III kurs talabasi*

**Anotatsiya:** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma'naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalashda pedagogik shart sharoitlar yaratilishi, bunda bolalar sog'lom, intellectual yetuk bo'lishlarida atrof-muhit, tabiat manzarasini asrab avaylash muhim o'rin tutishi hususidagi masalalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** atrof tabiat, inson ekologiyasi, elementar bilim, estetik tarbiya, tafakkur qilish.

Bizga ma'lumki maktabgacha ta'lim tashkilotlari uzluksiz ta'limning asosiy negizini tashkil etadi. Mamlakatimizda malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayorlashda alohida e'tibor berilishi natijasida uning samaradorligi oshdi. Maktabgacha ta'lim dasturlari qayta ishlandi. Zamonaviy o'quv – uslubiy qo'llanmalar texnik vositalar o'yinchoqlar ishlab chiqildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy, ruxiy, jismoniy, shaxsiy, madaniy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma'naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun pedagogik shart sharoitlar yaratildi. Ilmiy – tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Lekin bularni o'zi yetarli emas. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sog'lom, intellectual yetuk bo'lishlarida atrof-muhit, tabiat manzarasi muhim o'rin tutadi.

Hozirgi davr manzarasi ekologik ta'lim va tarbiyani izchillik bilan talab etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma'naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun pedagogik shart sharoitlar yaratildi. Ilmiy – tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Lekin bularni o'zi yetarli emas. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sog'lom, intellectual yetuk bo'lishlarida atrof-muhit, tabiat manzarasi muhim o'rin tutadi.

har bir davrda o'ziga xos globaldir.



Mamlakatimizda cheksiz, maqsadsiz qurulish ishlari atrof tabiatni undagi yashil manzarani nes nobud bo'lishiga o'zining negativ ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Shu bois o'sib kelayotgan yosh avlodni ilk bolalik davridan boshlab tabiatni asrab avaylashga unga ekologik ongli munosabatda bo'lishlikni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Insonning tashqi muhitga munosabati boshqa tirik organizmlardan tubdan farq qiladi. 1921- yilda amerikalik olimlar Borta va Park tomonidan "Inson ekologiyasi" degan yangi fan kiritildi.

Dastlab, inson ekologiyasiga tabiiy soha bo'limi sifatida qaralib, keyinchalik uning ijtimoiy, texnik, me'moriy-iqtisodiy va huquqiy tomonlari ham o'rganildi. Inson ekologiyasi insonning atrof-muhitga va aksincha, atrof-muhitning insonga ta'sirini o'rganadi. Inson ekologiyasini o'rganish natijasida ijtimoiy ekologiya vujudga keladi. Unga birinchi bo'lib Raderik Mak Kenzil ta'rif bergan.

Ekologiya ijtimoiy fanlardan biri hisoblanib, uning maqsadi inson bilan atrof-muhit o'rtasidagi xususiy bog'lanishlarni o'rganishdan iborat. Shunday qilib, ekologiya bugungi kunda tabiiy va ijtimoiy fanlar jumlasiga kirib, o'rganilayotgan ob'yekt yoki tizimning atrof-muhit bilan munosabatini keng miqyosda tadqiq etadi. Biosfera va inson ekologiyasi fanining ob'ekti bo'lib bir hujayrali sodda tuzilishdagi bakteriyalar, zamburug'lar, o'simlik va xayvonlar hamda ularning jamoalari xizmat qiladi. Ekologiya fani tabiat bilan tirik organizmlarning uzviy bog'lanishini ifoda etar ekan, u shubhasiz tabiatni muhofaza qilishning ilmiy asosini tashkil etadi.

Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi ilk ekologik madaniyatni shakillantirish, ya'ni bolalarda tabiatga, o'ziga va atrofdagi odamlarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatni tarbiyalashdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ta'lim— tarbiyani ularning tabiatga, hayvon va o'simliklarga nisbatan munosabatini kuzatishdan boshlash zarur. Bolalar tabiat burchagi bilan qizikayaptilarmi, bolalarning tabiat materiallari bilan (ijobiy yoki salbiy) amaliy ishlariga e'tibor berish, tabiat materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlar va tabiat haqida fikrlarini qayd qilib boriladi.

Bunday kuzatuvlar ayrim bolalarda tirik mavjudotlarga nisbatan salbiy munosabatlar (erda yurib ketayotgan chumoli, qo'ng'izlarni ko'rib ularni bosib tashlash, uchib ketayotgan kapalakni ko'rib esa ushlariga harakat qilish)ni, o'simliklarni parvarish qilish bo'yicha bilimlari sayoz ekani yoki umuman bilmasliklarini ko'rsatishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama kamol toptirish va tarbiyalash turli vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bulardan eng samaralisi maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish, ekologik bilimlar berishdir.



Tabiat bolani ma'naviy boyitishning bitmas —tuganmas manbaidir. Bolalar doimo tabiat bilan aloqada bo'ladilar. Ularni yam — yashil o'tloqlar va o'rmoilar, gullar, kapalaklar, qo'ng'izlar, qushlar, hayvonlar, bulutlar, yog'ayotgan qor uchqunlari, jilg'a va ko'lmaklar o'ziga jalb qiladi. O'simlik hamda hayvonlarning xilma — xilligi bolalarda tabiatga nisbatan qiziqish va havas uyg'otadi. Tabiat bilan muloqotda bo'lish bolalarda jonli mavjudotga insoniy munosabatda bo'lishni shakllantirishga ularni avaylab asrashga undaydi.

***Bolalarni tabiat bilai tanishtirish, uni tabiatni tushunishga o'rgatish, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotining eng muhim vazifasidir.***

Bolalar tabiat haqida juda bo'lmaganda elementar bilimlarni egallab olib, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilishning oddiy usullarini, tabiatni kuzatish, uning go'zalliklarini ko'ra olishni bilib olgan taqdirdagina ularda tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash imkoniyati tug'iladi. Bolalarda tabiatda jonajon o'lka, ona - Vatanga muhabbat xuddi mana shu asosda shakllanadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiat boyliklaridan unumli foydalanish masalasi hozirgi kunda butun insoniyat uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ekologik ta'lim - tarbiya ishlarini to'g'ri amalga oshirish jamiyatning. Har bir insonning xayotiy zaruryatiga aylanib borishi hozirgi kunning talabi bo'lmog'i lozim.

P.Yusupovaning maktabgacha yoshdagi bolalarni o'simliklar, ularning nomlari va xususiyatlari, o'sish va rivojlanishi, parvarish etilishi bilan tanishtirish shuningdek, ularga ekologik tarbiya berishining ayrim muammolariga doir tadqiqotlari va maxsus, metodik qo'llanmali alohida ajralib turadi.

Ular tarbiyachilarga amaliy ish jarayonida mavzuga mos adabiy asarlar tanlash yuzasidan tavsiyalar hamda tabiatni kuzatish yo'llarini ko'rsatib bergani uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, bolalarga estetik tarbiya berishda ona – tabiatning tutgan o'rni beqiyosdir. Bu borada qator metodik qo'llanmalar yaratilgan bo'lib, ularda asosan, tabiatning go'zallik manbai ekanligi, bunday go'zallikdan estetik tarbiya vositasida foydalanish muammolari va usullari bolalarni tabiat go'zalligini ko'ra bilish va his qilishga o'rganish, tabiat manzaralarini himoya qilishga undashga katta e'tibor qaratilgan.

N.Tillyabovaning “Maktabgacha katta gurux bolalarida insonparvarlik his – tuyg'ularini tarbiyalash” risolasida katta gurux bolalarida insonparvarlik his –



tuyg'ularini tarbiyalash uslublari o'rganilgan. Yosh nihollarni axloqli – odobli, vatanparvar, insonparvar qilib tarbiyalashning yo'l – yuriqlari ko'rsatilgan. Maktabgacha katta gurux bolalarida insonparvarlik his – tuyg'ularini tarbiyalash uslublari, mashg'ulotlar mazmuni metodik jihatdan ishlab chiqilgan.

“Bolangiz maktabga tayyormi?” kitobida respublikamiz hamda xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta'lim bo'yicha mutaxassisliklarning bolani ruxiy, fiziologik, aqliy rivojlantirish borasidan tajribalari, uslubiy tavsiyalari berilgan. Bu kitobda testlarning, qiziqarli topshiriqlarning o'ziga xos tarzda berilishi ota – onalar uchun ham, maktabgacha ta'lim tashkilotlari hodimlari uchun ham bolalarni maktabgacha tayorlash jarayonida foydalanish imkoniyatini yaratadi. Kitobda jismoniy, psixologik aqliy rivojlanish hususiyatlari, o'qish malakalarini va o'quv faoliyatining shart sharoitlari ko'rsatilgan.

Ilk qadam Davlat o'quv dasturida bolalarni rivojlantirish va maktabga tayorlash vazifasi amaliyotga tadbiiq etishga yo'naltirilgan. Unda haftalik, oylik, yillik, taqsimotlar respublika miqyosida yillar davomida o'tkazilgan tajriba – sinov natijalari asosida yozilgan mashg'ulotlar tarbiyachilarga taqdim etilgan. Ilk qadam dasturida kichik, o'rta, katta, maktabgacha tayorlov yosh davridagi bolalar bilan ishlash vazifalari metodik jihatdan ko'rsatilgan.

Ilk qadam dasturida asos esa, O'zbekiston respublikasi Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari chaqaloqlik, ilk yosh davrlarda bolalarning nutqni va tafakkurini ma'nan rivojlanishi tarbiyachilarga tavsiya etilgan.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning davlat talablari asosida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan minimal talablarni amaliyotda qo'llash davlat talablari ko'rsatkichlariga erishish Ilk qadam dasturida kichik yoshdan boshlab, 6 – 7 yoshga yetguncha qadar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan minimal talablar o'z ifodasini togan.

M.Ikromovaning “Davraga chorlar bolajon” uslubiy qo'llanmasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalar dunyoqarashini boyitishda, ularning jismonan sog'lom bo'lishida muhim ahamiyatga egadir.

Chunki, unda davra qo'shiqlarini o'rgatishda bolalarning tuyg'u va harakatlarining mustahkamlanishi kabi masalalarni ifodalash bilan birga maktabgacha ta'lim tashkilotlari musiqa rahbarlariga musiqa tarbiyachisi bo'yicha ishlarni yanada jonli, qiziqarliroq tashkil etishga yordam beradi.

G.Jalilovaning “Bolalarni Maktabgacha tayorlashda noan'anaviy o'yinlardan foydalanish (oila sharoitida)” mavzusidagi tavsiyanomasida oila sharoitida qo'llashi



mumkin bo'lgan o'yin – mashqlar ko'rsatilgan. Tavsiya etilgan rivojlantiruvchi o'yinlar o'zining o'tkazilishi jihatidan ham sodda, ham noan'anaviyligi bilan bog'cha ruxshunoslari, tarbiyachilari, mahallalar qoshidagi yosh onalar maktabi tinglovchilari uchun qo'l keladi. Idrokni, diqqatni, xotirani, tafakkurni o'stirishga qaratilgan o'yinlar mazmuni va metodikasi ishlab chiqilgan.

Tabiatga oid pedagogik, maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi adabiyotlarni o'rganish, ularni tahlil qilish natijasida shu narsa ma'lum bo'ladiki, katta gurux yoshdagi bolalarda tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirish muammosi ilmiy – pedagogik jihatdan to'liq o'z yechimini topmagan. Lekin, bizning fikrimizcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarda aqliy, axloqiy, jismoniy, huquqiy, tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirish ularning ma'naviy rivojlanishida va barkamol bo'lishida muhim o'rin tutadi. Chunki, tushuncha buyumlarning umumiy va muhim belgilarini inson ongida yaxlit aks ettiradi. Tushuncha fikrning mahsuli sifatida dunyodagi narsa va hodisalarga munosabat bildirishning shaklidir.

Tushuncha sezish, idrok, tasavvur qilish, tajribalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, inson bilimlarini rivojlantiradi. So'zlarini mustahkamlaydi. Tushuncha ilmiy tafakkurning asosiy shakli bo'lib so'zlarda, muloqotda ifoda etiladi va mustahkamlanadi. Tushunchalar ko'p qirrali munosabatga ega bo'lib, ta'lim – tarbiya jarayonida amalga oshiriladi, va ular asosida aniqlanadi, umumlashtiriladi, tizimga solinadi, taqqoslanadi. Tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida bolalarning bilimlari, hayotdagi voqea – hodisalarga bo'lgan munosabatlarida kamol topadi. Shuning uchun ham maktabgacha katta gurux bolalarida ekologik tushunchalarni shakllantirishda tabiatdagi voqea va hodisalar muhim ahamiyatga egadir. Chunki bola tushunchalar orqali tashqi olamni va undagi narsalarni sezadi va idrok qiladi. Tushuncha bolaning atrofidagi narsalar bilan bo'lgan faoliyati davomida tobora takomillashib boradi va bilimlarning asosini tashkil etadi.

Tushunchalar asosida bolalarda mantiqiy fikr rivojlanadi. Bilim orqali tushuncha paydo bo'ladi va tushunchalarni umumlashtirish asosida bilimlar shakllanadi.

Demak, tushuncha bu – umumiy fikrga ega bo'lishdir. Masalan, fan tushunchasi, san'at tushunchasi. Nima haqidadir ma'lumotga ega bo'lish, nima haqidadir tushunish qobiliyatini namoyon etishdir.

Shuni aytish kerakki, tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirish murakkab, uzoq davom etuvchi va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u butun ta'lim va tarbiya jarayonida amlaga oshiriladi, bolalarda tabiat tushunchalarini shakllantirish – bu





bolalarda yoshiga muvofiq keluvchi atrof – muhitga bo'lgan ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, tabiat haqidagi ko'nikmalarni egallashga qiziqishni tarbiyalash demakdir. Tarbiyachining vazifasi tabiatni muhofaza etish bu har bir kishining vijdoni va burchi ekanligini bolalarga yoshligidan boshlab, tushuntirishi lozim. Inson o'z ongi va mehnati tufayli tabiatni sharaflash, uning go'zalligini asrash yo'lida qilingan mehnati tufayli uni rivojlanishiga yordam berishi jamiyatning hayoti va faoliyati, uning farovonligi uchun zarur hisoblanishi bolalar ongiga yetkazishi, har bir kishi suvsiz, havosiz, ersiz yashay olmasligini uqtirishi maqsadga muvofiq.

Tabiatga muhabbat hissini shakllantirish bolaning sezish, anglash, hissiy idrok, diqqat, xotira, tafakkur qilish kabi imkoniyatlarini nazarda tutish, tabiat haqidagi bilim jarayonini takomillashtirish zarur. Ma'lumki, tabiat haqidagi tushunchalar mashg'ulot jarayonida kamol topadi. Shuning uchun tarbiyachilar tabiatga sayohat jarayonida bolalarda gulga, daraxtga bo'lgan munosabatlarini faollashtiradilar. Bolalar ularni ushlaydilar. Sezgilarini jalb qilib, daraxtlarni qanday shitirlashiga quloq soladilar. Sezgilarning bunday faolligi tabiat haqidagi to'liqroq tasavvurlariga ega bo'lishga yordam beribgina qolmay, balki bu psixologik jarayonni rivojlantiradi, takomillashtiradi.

Tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirishda bolalarning xotiralarini o'stirish muhim hisoblanadi. Chunki, bolalar tabiat haqidagi materiallarini eslab qolish va ularga nisbatan o'z munosabatini bildirishi tabiat haqidagi tushunchalarning rivojlanishini ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlardagi katta gurux yoshidagi bolalar tabiatga sayohat jarayonida ularni ko'rib idrok etish bilan birga fikran tinglab fahmlaydilar. Tarbiyachi mashg'ulotlarda faqatgina tabiatni tushuntiribgina qolmay, balki tabiat haqidagi ma'lumot berishi maqsadga muvofiq. SHuning uchun mashg'ulot jarayonida tabiat va o'simliklar haqidagi xotira muhim o'rin egallaydi. Bolalarda mashg'ulot jarayonida yangidan – yangi bilim va ko'nikmalar mujassamlashib boradi, ularni esa anglash hamda xotirlab qolish kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ekologik ko'nikma va malakalarini rivojlanganligi, bosh miya nazorati ostidagi mushak – harakat apparatining takomillashganligiga bog'liqdir.

Bolalarni qiyinchiliklarni yengishga, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida matonat va qat'iyat bilan kirishishga, boshlangan ishni chala tashlab ketmay, balki oxiriga yetkazishga o'rgatish lozim. Bu o'rinda ijobiy his – tuyg'ular tabiatdan quvonish, lazzatlanish va qoniqish hissiyotlarining namoyon bo'lishi juda muhimdir. Tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirishda diqqatning jamlanishi, qiziqish, mustaqil fikr yuritish, qoniqmaslik kabi tuyg'ular namoyon bo'ladi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Расулходжаева, М. А. (2019). ПРИМЕНЕНИЕ УСТНЫХ НАРОДНЫХ ИГР В ВОСПИТАНИИ В СЕМЬЕ ЛЮБВИ К МИРУ ПРИРОДЫ. In *ДЕТСТВО В ПРОСТРАНСТВЕ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРАКТИК* (pp. 292-294).
2. Rasulkhujayeva, M. A. (2019). Educator's Role in Forming Moral Qualities Senior Preschool Age Children by Introducing Animal World. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
3. Расулходжаева, М. А. (2022). КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ. *Национальная ассоциация ученых*, (80), 30-32.
4. Kalendarova Z.K. Technology for Developing Thinking Ability of Students through Problem Education in Primary Education. *International Journal on Integrated Education* <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE> e-ISSN : 26203502 p-ISSN : 26153785
5. 244-249.
6. Rasulxo'jayeva Madina Axmadjonovna, & Ko'jageldiyeva Aziza Muxsum qizi. (2023). МАКТАБГАЧА YOSH DAGI BOLALARDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ MAQOLLARIDAN FOYDALANISH JARAYONINI TASHKIL ETISH TRAYEKTORIYASI . *PEDAGOGS Jurnal*, 27(1), 39-43.
7. Khasanova, S. (2021). Formation of national pride in children through teaching description of historical monuments in Uzbekistan. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 734-738.
8. Khasanova, S. T., & Vasila, T. (2023, May). DEVELOPMENT OF IMAGINARY-CREATIVE COMPETENCES IN THE PROCESS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSION. In *Next Scientists Conferences* (pp. 84-91).
9. Rasulxo'jayeva Madina Axmadjonovna, & Nodirbekova Yulduz Bekzod qizi. (2023). TARBIYACHI IMIDJIDA -PEDAGOGIK KOMMUNIKATSIYA. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 8(1), 107-118.
10. Ergasheva, B. (2022). TALABALARINING PEDAGOGIK MODERINIZATSIYA SHAROITIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. *Science and innovation*, 1(B7), 401-405.
11. Barno, E. (2023). O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TALIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY TIZIMI. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(3), 103-105.